



QADIMGI HIND TILSHUNOSLIGI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

*Turobov Abdurayim Malikovich,
SamDCHTI dotsenti*

Kalit soʻz va iboralar: *Veda, prakrit, brahman, grammatik jins, sanskritolog, Ashtadxyai, sof empirik, fuzey, tezey, ichki fleksiya, urgʻu, ohang, polisemiya, onomatopediya.*

Tilshunoslik tarixining ayrim mutaxassislari, jumladan, N.A.Kondrashov qadimgi Hindistonni til haqidagi fanning beshigi sifatida baholaydi [N.A.Kondrashov.1984. 12].

“Qadimgi Hindistonda” til bilan shugʻullanish dastlab sof amaliy ahamiyatga ega boʻlgan: davr oʻtishi bilan qadimgi yozma yodgorliklarning turli oʻzgarishlarga uchragan unsurlarini (soʻz va qoʻshimchalarini) qayta tiklash, izohlash lozim boʻlgan. Buning uchun hind olimlari eramizdan 15 asr ilgari (baʼzi tadqiqotchilarning fikricha; 45-25 asr ilgari,) yozilgan Vedalarni (oʻn kitobdan iborat boʻlgan diniy madhiyalar) – gimnlar, diniy qoʻshiqlar va afsonalar toʻplamini), eramizdan ilgarigi birinchi ming yillarda yozilgan sanskrit yodnomalarini oʻrganganlar va tahlil qilganlar. Ular Vedalardagi maʼnosi tushunarli boʻlmagan soʻzlarga izoh beradigan lugʻatlar tuzganlar, matnlarni diqqat bilan fonetik va morfologik jihatdan tahlil qilganlar. Bunday tayyorgarlik ishi oʻsha yodgorliklarning unutilgan, buzilgan, shuningdek, jonli til (prakrit) taʼsirida oʻzgarib ketgan oʻrinlarini qaytadan tiklash imkonini berdi. Ana Shunday maqsadda hind olimlari qadimgi adabiy til boʻlgan veda va sanskritda yozilgan matnlardagi soʻzlarning, toʻgʻrirogʻi, soʻz shakllarining oʻxshash shakllariga va oʻxshash maʼnolariga eʼtibor berib, bir soʻzning bir necha shaklini aniqlab, soʻngra ana shu shakllarni bir-biriga qiyoslab, ularning oʻxshash va nooʻxshash qismlarini ajratar edilar. Natijada, bir tomondan, soʻz shakllari uchun umumiy boʻlgan qism-oʻzak va negiz-ikkinchi tomondan, oʻzgarib turadigan qismlar-affikslar aniqlanardi. Shu tariqa soʻz yoki soʻz shakllari amalda birlamchi unsurlarga, hozirgi termin bilan ataganda, morfemalarga ajratilgan. Shuning uchun ham qadimgi hind olimlari

grammatikani vyakarana, yaʼni ajratish (tahlil) deb ataganlar [S.Usmonov. 1972.10].

Dastlabki muqaddas hind qoʻshiqlari eramizdan 1500 yillar oldin paydo boʻlgan deb taxmin qilinadi. Sanskrit eramizdan oldin V asrdayoq jamiyatning kundalik aloqa vositasi vazifasini yoʻqotib, oʻlik tilga aylangan boʻlsa ham, diniy va madaniy anʼanalarni oʻzida saqlovchi mumtoz til sifatida saqlanib keldi. Qadimgi vedalar tilini sharhlash, soʻzlarning toʻgʻri talaffuzini saqlab qolish ehtiyoji tilshunoslik fanining paydo boʻlishiga olib keldi [A.Nurmonov. 2012.5].

Qadimgi Hindistonda dastlab tilshunoslik bilan ruhoniylar shugʻullangan.

Taniqli nazariyotchi olim, professor R.Rasulov bu haqda Shunday yozadi. Vedalardagi maʼnosi tushunarli boʻlmagan soʻzlarni aniqlab, ularning maʼnosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lugʻatlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi soʻz va jumlar maʼnosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga boʻlgan qatʼiy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab boʻldi [Rasulov R. 2017.10].

“Ruhoniylar (brahmanlar) tomonidan yozilgan dastlabki grammatik asarlarda toʻgʻri talaffuz masalalari ustida soʻz yuritiladi. Eramizdan ilgarigi ming yillik boshlarida lugʻatlar tuzilgan. Shunday lugʻatlardan beshtasi qadimgi Hindistonning mashhur tilshunosi Yaski (eramizdan oldingi V asr) nomi bilan bogʻliq. Yaski soʻzning morfologik tarkibini, Shuningdek, soʻz maʼnosi masalasini ham toʻgʻri tasavvur qilgan. Uningcha, soʻz narsani bevosita aks ettirmaydi. Uning tovush tomoni bilan narsa oʻrtasida turuvchi maʼno bor. Shu maʼno



tufayli soʻz narsani nomlash imkoniyatiga ega boʻladi” [S.Usmonov. 1972.13].

A.V.Paribokning qayd qilishicha, bizgacha etib kelgan birinchi lugʻat eramizgacha V asrda buddist Amarasimxa tomonidan yaratilgan va u “Amarakosha”, yaʼni Amarasimxa xazinasi deb atalgan.

Lugʻatlarda juda koʻp ishlatiladigan soʻzlarga izoh berilmagan. Nisbatan maxsus maʼnoli soʻzlar Evropa lugʻatlaridek grammatik jinsni koʻrsatish bilan izohlangan [A.V.Paribok.1981.172].

Eramizning V asrida esa Amara sankritning Shunday lugʻatini tuzgan. Undan evropalik sanskritologlar hozir ham foydalanmoqdalar. Qadimgi hind tilshunoslari morfologiya sohasida juda muhim yutuqlarga erishganlar. Ular morfologiyaning uch boʻlimdan iborat ekanligini koʻrsatganlar:

1. Soʻz turkumlarining tasnifi.

2. Soʻz yasalihi. (Oʻtgan asrning birinchi yarmida soʻz yasalihi tilshunoslikning mustaqil sohasi darajasiga koʻtarildi.)

3. Soʻzlarning grammatik shakl jihatidan oʻzgarishi. “Soʻzlarni turkumlarga ajratish” masalasida yagona fikr yoʻq edi. Toʻrtta soʻz turkumini ajratish fikri koʻproq eʼtirof qilingan. Ular ot, feʼl, old koʻmakchi va Yuklama.

Ot-predmetlik gʻoyasini bildiruvchi, feʼl esa harakatni ifodalovchi soʻz sifatida taʼriflanadi. Otlar feʼl oʻzaklaridan yasaladi, ular birlik, juftlik va koʻplik shakllariga egadir. Old koʻmakchilar otlarning va feʼllarning maʼnolarini koʻrsatib beruvchi soʻzlar deb baholangan. Yuklamalarga kelganda, qadimgi hind olimlari ularni maʼnolariga koʻra uch guruhga ajratganlar: 1) qiyoslash Yuklamalari, 2) bogʻlovchi Yuklamalar, 3) sheʼrlarda shakl unsuri sifatida ishlatiladigan Yuklamalar.

Olmoshlar va sifatlar alohida soʻz turkumlariga ajratilmay, ot va fel turkumlariga qoʻshib yuborilgan.

Hindlar yettita kelishikni ajratganlar. Bular: 1) bosh kelishik, 2) tushum kelishigi, 3) qurol kelishigi, 4) joʻnalish kelishigi, 5) ajratish (yaʼni chiqish) kelishigi, 6) qaratqich kelishigi, 7) oʻrin kelishigi.

Biroq hind grammatiklari yuqoridagi kabi alohida nomlar bilan atamagan. Ular birinchi, ikkinchi, uchinchi va hakoza deb kelishiklarni bir-biridan raqam bilan farqlaganlar.

Hind tilshunoslari qoʻshma soʻzlarning oʻttizga yaqin turini farqlaganlar. Ular qoʻshma soʻzlarning tuzilishida komponentlar orasidagi munosabatlarga eʼtibor berganlar. Masalan: ot+ot // feʼl; sifat//sifatdosh// ravish+ot //sifat//feʼl; son+ot va boshqalar [R.Rasulov. 2017. 11].

Hind olimlari feʼl turkumining morfologik kategoriyalarini mukammal ishlagan edilar. Ular feʼlning uch zamonga birlashadigan etti xil zamon shaklini: Hozirgi zamon, oʻtgan zamonning tugallangan, tugallanmagan va uzoq oʻtgan zamon turlarini, kelasi zamonning odatdagi kelasi zamon va juda kam qoʻllanadigan shart feʼli shakllarini ajratganlar.

U davrlarda ham feʼlning toʻrtta mayli-xabar, istak, buyruq, shart mayllarini bilganlar. Feʼlning aniq, oʻrta va majhul nisbatlari ajratilib, har biri alohida taʼriflangan. Chunki aniq nisbat boshqa shaxs foydasi uchun bajariladigan harakatini ifodalovchi soʻz deb taʼriflangan.

Sanskrit tilida feʼlning uch shaxs va uchta son (birlik, juftlik, koʻplik)ga koʻra tuslanishi koʻrsatilgan” [S.Usmonov. 1972.11-12]. “Yetarli darajada ishlangan qadimgi hind grammatik anʼanalarining mahsuli sifatida mashhur tilshunos Paninining “Ashtadhyai” (grammatik qoidalarining sakkiz boʻlimi)” asari maydonga keldi. Panini eramizdan ilgari XV asrning ikkinchi yarmida yashagan deb taxmin qilinadi.

Paninining grammatikasi sof empirik va tasviriy xarakterdagi darslik boʻlib, unda sanskrit (qisman veda) tilining fonetik, morfologik, soʻz yasalihi va sintaktik sistemasiga oid 3996 ta qoida jamlangan.

Qoidalar bolalarning yodlashlariga moʻljallanib, juda ixcham shaklda, sheʼr bilan aytilgan.

Panini Veda prozaik asarlar tilini qonunlashtirdi, grammatik qoidalar asosida bir meʼyorga keltirdi. Chunki ungacha Vedalar turli dialektlarda yozilgan edi. Panini va uning izdoshlari sanskrit adabiy tilining



ortiqcha soddalashib ketish jarayonini to'xtatdilar. Natijada sanskrit bilan jonli til, prakrit orasida farq paydo bo'ldi.

Panini o'z grammatikasida tilga tarixiy yo'sinda yondoshmagan edi. Shu bilan birga, unda falsafiy baza, umumlashtirishlar yo'q edi. Shunga qaramay, bu grammatika Hindistonda qariyb 2 ming yil davomida eng ishonarli va obro'li qo'llanma bo'lib keldi. [S.Usmonov. 1972.14].

Hindshunos A.P.Barannikovning qayd qilishicha, Panini sanskrit va veda tilini bir-biri bilan qiyoslash natijasida qiyosiy metod namunasini yaratgan. U nihoyatda oddiy bo'lgan. Buning ustiga, Panini grammatikasida tilning tarixiy taraqqiyoti tushunchasi bo'lmagan.

R.Rasulov qayd qilishicha, ushbu tadqiqot tili – undagi qoidalarni nihoyatda ixcham va qisqa bo'lganligi, asar tili o'ziga xos terminologiyaga egaligi sababli Panini tadqiqoti uzoq vaqtgacha ovrupolik olimlarga tushunarli bo'lmadi. Birinchi bo'lib, asar mazmunini, undagi g'oyani rus tilshunos olimi O.Byotling izohlab berdi.

Panini o'z davrida yoq tilni sistema sifatida tushundi, so'z turkumlarini farqladi, so'z tarkibini o'rgandi, o'zak, qo'shimcha, urg'u, intonatsiya va boshqa hodisalar haqida ma'lumot berdi [R.Rasulov. 2017.12].

Bulardan qat'iy nazar, Ya.V.Loyaning qayd qilishicha, Panini mumtoz sanskrit grammatikasining mukammal, to'liq sistemasini bayon qilgan [Ya.V.Loya. 1968. 58].

Demak, Panini o'sha davridayoq tilni o'ziga xos sistema sifatida tasavvur qilgan deyish mumkin.

Panini tilshunoslikka nol morfema tushunchasini kiritgan, ichki fleksiyaning, urg'uni, ohangni aniq farqlagan.

Panini tilshunoslikka Varuchi Katyana (eramizgacha III asr) va Patanjali (eramizgacha II asr) kabi mashhur sharhlovchilariga ega bo'lgan va mutaxassislar qariyb 2 ming davomida yuqori baholanib kelmoqda.

Chunki uzoq yillar davomida ham sanskritning Paninikidek mukammal grammatikasi yaratilmagan. Ya.V.Loya va S.Usmonovning ko'rsatishicha, eramizning

XII asridagina, A.V.Paribokning ko'rsatishicha esa, eramizning XIV asridagina yirik hind tilshunosi Vopadeva sanskritning yangi, qimmatbaho grammatikasini yaratgan.

Hindistonda grammatik ta'limot eramizning I asri o'rtalarida ayniqsa rivojlangan. Bunda, Ya.V.Loya va F.M.Berezinning ko'rsatishicha, eramizning I asrida, A.V.Paribokning ko'rsatishicha esa, XI asrida yashagan faylasuf tilshunos Bxartxarining ilmiy faoliyati alohida o'rin tutgan. U ham, boshqa grammatiklar kabi, gapni tilning asosiy birligi sifatida talqin qilgan.

Ko'rinadiki, qadimgi hind tilshunoslari, sintaksis sohasida jiddiy ishlar qilmagan bo'lsalar-da, gapga yuqori baho berganlar. Jumladan, Bxartxari "Gap va so'z haqida asar" nomli monografiyasida grammatikaga quyidagicha baho bergan:

"U (ya'ni grammatika) mangulik darvozasidir, nutqni ifloslanishdan saqlovchi dorivordir, barcha bilimlarni yorituvchidir. U har bir bilimda yarqirab nur sohib turadi" [A.V.Paribok 1981.155].

Hind tilshunoslari til birligi sifatida gapni tan olganlar, Chunki faqat gap orqali fikr ifodalanadi, deb tushunganlar. So'zni til birligi deb hisoblamaganlar. Ularcha, so'z shakl va mazmun nuqtai nazaridan mustaqillikka ega emas [B.O'rinboyev 1999. 8].

XI asrda yashagan faylasuf tilshunos Bxartxarining ilmiy faoliyati alohida o'rin tutgan. U ham, boshqa grammatiklar kabi, gapni tilning asosiy birligi sifatida talqin qilgan.

Ko'rinadiki, qadimgi hind tilshunoslari, sintaksis sohasida jiddiy ishlar qilmagan bo'lsalarda, gapga yuqori baho berganlar. Jumladan, Bxartxari "Gap va so'z haqida asar" nomli monografiyasida grammatikaga quyidagicha baho bergan:

XI asrning yirik olimi Anandavardxana poetikaga bag'ishlangan "Dxvana olami" nomli mashhur asarida Bxartxarini quvvatlab, shunday deydi:

"Olimlarning birinchisi grammatiklardir, chunki grammatika barcha fanlarning poydevoridir" [A.V.Paribok.1981.155].



F.M.Berezinning ta'kidlashicha, qadimgi hind tilshunoslari Panini, Katyana va Bxartxaridan keyin yangi tadqiqotlar olib bormaganlar.

Ular o'zlaridan keyin o'tgan tilshunoslarning qarashlarini umumlashtirish va ularning asarlarini sharhlash bilan shug'ullanganlar.

Umuman olganda esa, qadimgi hind tilshunoslari o'z davrlari e'tibori bilan til haqidagi fan taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga ko'tarila olganlar, jahon tilshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'sha olganlar, ko'plab mamlakatlarning tilshunoslariga kuchli ta'sir ko'rsatganlar.

Adabiyotlar:

- 1.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2017 yil, 312 b.
- 2.Nurmonov A. Tanlangan asarlar 2-jild. Lingvistik ta'limotlar tarixi –Toshkent: 2012 yil, 232 b.
- 3.O'rinboyev B. O'zbek tilshunosligi tarixi. -Samarqand: SamDU, 1999. -80 b.
- 4.Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent: "O'qituvchi", 1972. 208 b.
5. Я.В.Лоя. История лингвистических учений.-М.:Высшая школа, 1968.-308 с.
- 6.Ф.М.Березин. История лингвистических учений.-М. 1984.-319 с.
- 7.Н.А.Кондрашов. История лингвистических учений.-М.:Просвещение,1979.-224 с.
- 8.А.В.Парибок. Методологической основаниях индийской лингвистики // История лингвистический учений.Средневековый Восток.-Ленинград: Наука,1981. 214 с.
- 9.Лингвистический энциклопедический словарь/ гл. ред. В.Н. Ярцева. – 2-е изд., доп. – М. : Большая рос. энцикл., 2002. – 709 с.

Туробов А. Некоторые размышления о древнеиндийском языкознании. В данной статье анализируется развитие языка, лингвистической практики, труды учёных древней Индии, а также развитие практического языкознания на основе грамматических правил языка.

Turobov A. Some discussions on the linguistics of ancient India. This article analyzes the discussion of language development, linguistic practice and works of scholars of ancient India as well as development of practical linguistics on the basis of grammar rules.